



Djoldasova Saxipjamal Djalgasovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha bosh ilmiy xodimi,
yuridik fanlari doktori

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar mehnat migratsiyasi masalalari, ularni huquqiy tartibga solish, tashqi mehnat migratsiyasi, migrant ayollar bandligi, xorij davlatlari bilan mehnat qonunchiligini inobatga olgan holda imzolangan kelishuvlar, xorijda mehnat faoliyatini qonuniy hamda xavfsiz amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы женской трудовой миграции, их правовое регулирование, внешняя трудовая миграция, трудоустройство женщин-мигрантов, договоры, заключенные с зарубежными странами с учетом трудового законодательства, вопросы совершенствования правовых и организационных основ законного и безопасного осуществления считается трудовая деятельность за границей.

Annotation. In this article, the issues of women's labor migration, their legal regulation, foreign labor migration, employment of migrant women, agreements signed with foreign countries taking into account the labor legislation, issues of improving the legal and organizational foundations of legal and safe implementation of labor activities abroad are considered.

Tayanch so‘zlar: ayollar mehnat migratsiyasi, qonun, migratsiya siyosati, bandlik, migrant, xorijiy mehnat migrantlari, aholi bandligi.

Ключевые слова: женская трудовая миграция, закон, миграционная политика, занятость, мигрант, иностранные трудовые мигранты, занятость населения.

Keywords: women's labor migration, law, migration policy, employment, migrant, foreign labor migrants, population employment.

Kirish. Migratsiya yoʻnalishlarida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilotlarning Oʻzbekistonga doir hisobotlari (International migration 2020: report) va milliy statistika (Oʻzbekiston gender statistikasi) maʼlumotlarni mamlakatimizni “migrantlar yuboruvchi” yoki “donor” davlat sifatida qarshga asos boʻladi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston migratsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlari qatorida qonuniy, tartibli va xavfsiz tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yaratish, xususan, ayol migrantlarning xavfsizligini taʼminlash, integratsiya va reintegratsiyani samarali tashkil qilishni takomillashtirish shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda ayollar mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tartibga solish doirasida amalga oshiriladi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi hamda “Xususiy bandlik agentliklari toʻgʻrisida”gi Qonunlari fuqarolarning davlat ichki va tashqi mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi va kafolatlarini belgilab berdi. Shu bilan birga, quyidagi qonunosti hujjatlarida tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi masalalar mustahkamlangan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PQ-3584-son, 2018-yil 5-iyuldagi PQ-3839-son, 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son, 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4008-son, 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son va 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-son qarorlari, 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 15-maydagi 97-son, 2018-yil 12-sentabrdagi 725-son, 2018-yil 31-dekabrdagi 1066-son, 2019-yil 25-martdagi 244-son, 2019-yil 23-avgustdagi 713-son, 2020-yil 4-apreldagi 198-son hamda 2021-yil 5-apreldagi 183-son qarorlari shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning mehnat qilishi, “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Qonunda esa fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shugʻullanishi, mustaqil tarzda ish qidirish va ishga joylashish huquqi mustahkamlangan.

“Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Qonunda mamlakatimiz fuqarolarining Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishiga koʻmaklashish, Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini taʼminlash aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilandi. Mazkur Qonun bilan ushbu yoʻnalishda davlat organlarining vakolatlari belgilandi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi aholi bandligi sohasidagi vakolatli davlat organi sifatida koʻrsatilib, unga koʻra, ushbu organ:

Oʻzbekiston migratsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlari qatorida qonuniy, tartibli va xavfsiz tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yaratish, xususan, ayol migrantlarning xavfsizligini taʼminlash, integratsiya va reintegratsiyani samarali tashkil qilishni takomillashtirish shular jumlasidandir.

***Harakatlar
strategiyasi
doirasida amalga
oshirilgan
islohotlar, shu
jumladan,
fuqarolarning
xorijda mehnat
faoliyatini qonuniy
va xavfsiz amalga
oshirishning
huquqiy va
tashkiliy asoslari
takomillashtirildi.***

– fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko‘maklashish;

– O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;

– O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish vakolatlariga ega.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar, shu jumladan, fuqarolarning xorijda mehnat faoliyatini qonuniy va xavfsiz amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashtirildi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga mehnat migrantlari va ularning ish beruvchilari bilan bevosita huquqiy munosabatlarni o‘rnatish vakolatli davlat organi hisoblanadi va quyidagilarni amalga oshiradi:

– mehnat migrantlarini jalb qilish uchun o‘z mamlakatining vakolatli organlarida rasman ro‘yxatga olingan yoki akkreditatsiyadan o‘tkazilgan chet el ish beruvchilari bilan bitimlar tuzish;

– O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolarni uyushgan holda ishga qabul qilish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishda chet el ish beruvchilari bilan shartnomalar tuzish;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish shart-sharoitlari monitoringi va nazoratini amalga oshirish;

– mehnat migrantlari ishga joylashtiriladigan davlatda ularga xodimlarning tegishli toifasi uchun belgilangan ishhaqidan kam bo‘lmagan darajada ishhaqini ta‘minlash normalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– ishga joylashtiriladigan davlatda belgilangan munosib yashash va ishlash shart-sharoitlarini ta‘minlash normalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish vakolatlari belgilangan².

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish uchun quyidagi xizmatlarni ko‘rsatishga doir faoliyatni amalga oshiradi:

– vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketayotgan fuqarolarga

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-642-сон Қонуни // <http://lex.uz/docs/5055690>

² O‘sha joyda.

temiryoʻl hamda aviachiptalarni sotib olishda va boshqa transport-logistika masalalarini hal etishda koʻmaklashish;

– Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashish uchun zarur hujjatlar toʻplamini rasmiylashtirishda koʻmaklashish, shu jumladan, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin moslashtirish, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ularga chet tillarini, ishlab chiqarishlardagi xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini oʻrgatish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning talabnomalariga koʻra Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi vakolatxonalarining ish jarayonida foydalanilmayotgan transport vositalarini jalb etish orqali transport xizmatlari koʻrsatish;

– Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini va chet ellik fuqarolarni mehmonxona sektorida joylashtirish yuzasidan shartnoma asosida xizmatlar koʻrsatish³.

Mamlakatimizda yillar davomida saqlanib kelgan noqonuniy mehnat migratsiyasi oqimini qisqartirish, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga ketayotgan fuqarolarning mehnat va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini taʼminlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ushbu davlatda himoya qilish davlatning oʻz fuqarolari oldidagi majburiyatidir. Ushbu qoida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida davlatning oʻz fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik koʻrsatishni kafolat sifatida belgilangan.

Mazkur kafolat davlat tomonidan vakolatli organ va tashkilotlar orqali taʼminlanadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, yuboruvchi tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bu borada Oʻzbekistonning migratsiya siyosati oʻz fuqarolarini uyushgan holda tanlash va joʻnatish hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini uyushgan holda tanlash va xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirishga joʻnatish Oʻzbekiston Respublikasida

Mamlakatimizda yillar davomida saqlanib kelgan noqonuniy mehnat migratsiyasi oqimini qisqartirish, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga ketayotgan fuqarolarning mehnat va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini taʼminlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

³ Oʻsha joyda.

***Davlatlararo
kelishuv va
bitimlar doirasida
fuqarolarni
tashkiliy tartibda
xorijiy davlatlarda
ishga joylashtirish
uchun ish beruvchi
tomonning
nomzodga nisbatan
talablar qo'yishi
inobatga olinish
lozim.***

ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar (xususiy bandlik agentliklari) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi beradigan litsenziya asosida amalga oshiriladi. Fuqarolarni tashkiliy tartibda xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish ish beruvchi davlatning mehnat qonunchiligini inobatga olgan holda imzolangan kelishuvlar, bitimlar asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi (Tatariston Respublikasi, Krasnoyarsk o'lkasi hukumati, Rostov viloyati hukumati, Astraxan viloyati hukumati), Arab Amirliklari, Polsha, Turkiya, Bolgariya, Yaponiya, Kanada davlatlari bilan shu kabi bitimlar tuzilgan.

Davlatlararo kelishuv va bitimlar doirasida fuqarolarni tashkiliy tartibda xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish uchun ish beruvchi tomonning nomzodga nisbatan talablar qo'yishi inobatga olinish lozim. Bunda umumiy talablar (xorijiy tilni bilish, qonunni buzmagalik (deportatsiya bo'lmaganlik), tibbiy va jismoniy sog'lom bo'lish) hamda fuqarolarni tanlashda qator tartib-taomillardan o'tish (Agentlik yoki xususiy bandlik agentligiga murojaat qilish, ish beruvchi talabi asosida tanlovdan o'tish, mehnat shartnomasi tuzish va hujjatlarni rasmiylashtirish, viza talab qilinadigan davlatlarga ishchi vizasini olish, ketishdan oldin ko'niktirish, tashkiliy tartibda ishga yuborish) kerak bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Koreya Respublikasi Bandlik va mehnat vazirligi o'rtasida imzolangan Memorandumga asosan Koreyada ishlash istagida bo'lgan respublikamiz fuqarolarini ro'yxatga olish jarayonida va koreys tili bo'yicha test sinovlarida qatnashishlari talab etiladi. Koreya Respublikasida ishlash istagida bo'lgan nomzodlarga talablar yosh senzi, sudlanganlik holati, salomatligi holati bo'yicha saralab olinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta'minlash maqsadida temiryo'l va aviachiptalar maxsus kassalarda imtiyozli tariflar bo'yicha sotilmoqda, shuningdek, chet elga chiqib ketayotgan fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini sug'urta qilishni rasmiylashtirish uchun sug'urta agentlari faoliyat ko'rsatadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi xorijda mehnat migrantlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashi alohida o'rinni egallagan.

Bu borada O'zbekistonning chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari hamda Tashqi mehnat agentligining chet eldagi vakolatxonalari katta rol o'ynaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga joʻnab ketayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini taʼminlash, ularga zarur huquqiy, ijtimoiy, axborot-maslahat yordami koʻrsatish va moddiy qoʻllab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

2022-yil 1-iyundan boshlab Rossiya Federatsiyasi (10 ta hududida 2 tadan), Turkiya Respublikasi (1ta hududida 2ta) va Qozogʻiston Respublikasining (1ta hududida 2 ta) hududlarida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining vakillik instituti joriy qilindi⁴.

Vakillarning asosiy faoliyat yoʻnalishlari sifatida Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonolari va konsullik muassasalari bilan hamkorlikda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni moddiy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, xorijdagi vatandoshlar va oʻzbek milliy-madaniy tashkilotlari bilan yaqin aloqalarni oʻrnatish hamda mustahkamlash, ular bilan hamkorlikda muntazam ravishda mehnat migrantlari uchun madaniy va maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, vakillar Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish koʻlamini kengaytirish, noqonuniy mehnat migratsiyasining oldini olish, salohiyatli ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borish, xorijda boʻlib turgan davrida zoʻravonlik, majburiy mehnat va tahqirlanishga duchor boʻlgan, jarohat olgan, baxtsiz hodisaga uchragan, ogʻir kasallikka chalingan, murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolgan, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz yoki mablagʻsiz qolgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam koʻrsatish ishlarini amalga oshirish vakolatiga ega.

Shu bilan birga, xorijda boʻlib turgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini huquqiy, ijtimoiy va madaniy-maʼrifiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash mamlakatimizda joriy etilayotgan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam taʼminlangan oila aʼzosi sifatida eʼtirof etilgan yoki “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”dan biriga kiritilgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yoʻli bilan vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarga

***Vakillar
Oʻzbekiston
Respublikasi
fuqarolarini
xorijda uyushgan
holda ishga
joylashtirish
koʻlamini
kengaytirish,
noqonuniy mehnat
migratsiyasining
oldini olish,
salohiyatli ish
beruvchilar bilan
muzokaralar
olib borish,
xorijda boʻlib
turgan davrida
zoʻravonlik,
majburiy mehnat
va tahqirlanishga
duchor boʻlgan,
jarohat olgan,
baxtsiz hodisaga
uchragan,
ogʻir kasallikka
chalingan,
murakkab
moliyaviy
ahvolga tushib
qolgan, shaxsini
tasdiqlovchi
hujjatlarsiz yoki
mablagʻsiz qolgan
Oʻzbekiston
Respublikasi
fuqarolariga
yordam koʻrsatish
ishlarini amalga
oshirish vakolatiga
ega.***

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Хорижда вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ва уларнинг оила аъзоларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-149-сон қарори // <http://lex.uz/docs/5893253>

Shu bilan birga, tuman/shahar hokimlari, hokim yordamchilari, mahallalardagi yoshlar yetakchilari va mahalla raislarining ham mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashga oid vazifalari muhim ahamiyatga ega.

mikroqarzarlar beriladi. Mikroqarzarlar xorijda ishga joylashish (shu jumladan, yo'l haqini to'lash va mehnat faoliyatiga ruxsat olish) bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun 10 million so'mgacha miqdorda bir yil muddatga beriladi. Bunda mikroqarz hamda unga hisoblangan foizlar qarz oluvchining (oila a'zolarining) topshirig'iga muvofiq ularning hisobvaraqlariga xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali kelib tushgan mablag'lardan ushlab qolish yo'li bilan hamda qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa usullarda to'lanishi mumkin⁵.

Shu bilan birga, tuman/shahar hokimlari, hokim yordamchilari, mahallalardagi yoshlar yetakchilari va mahalla raislarining ham mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlashga oid vazifalari muhim ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-149-son qarori bilan ularga muntazam ravishda mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning oila a'zolari holidan xonadonbay xabar olish, muammolari va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal etishda yordam ko'rsatish, shuningdek, ularning moddiy, ijtimoiy va yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha manzilli ishlarni bajarish vazifasi yuklatilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning xorijdagi mehnat faoliyatini qonuniy va xavfsiz amalga oshirish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilishni huquqiy tartibga solishda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

birinchidan, tashqi mehnat migratsiyasi sohasi qonunosti hujjatlaridan iborat bo'lib, milliy qonunchilikdagi mehnat migrantlarining huquqlariga oid ayrim masalalarni xalqaro hujjatlar bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud;

ikkinchidan, qonunchilik hujjatlarida tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohani tartibga solishda ishtirok etadigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari doirasi, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida qo'llanib kelinayotgan barcha tushunchalarning mazmuni va asosiy prinsiplar belgilab berilmagan;

uchinchidan, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi mehnat faoliyatini tashkil etish, ularning huquq va majburiyatlari, uyushgan holda ishga joylashtirish, uyushgan holda ishga joylashtiriladigan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy kafolatlar, chet elda huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari turli qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan;

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 15 сентябрдаги “Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4829-сон қарори // <http://lex.uz/docs/4997972#4998226>

to‘rtinchidan, chet ellik fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyati “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solingan, biroq ushbu sohada munosabatlar “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonun asosida tartibga solishni taqozo qiladi;

beshinchidan, amaldagi qonunchilikda “labor-migration” axborot tizimini yuritish, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini monitoring qilish tartibini belgilab beruvchi normalar tarqoq holda bo‘lib, ularni yagona tizimga keltirish talab etiladi.

Tashqi mehnat migratsiyasi, uning mexanizmlari va shakllari, fuqarolarni chet ellarda ish bilan ta‘minlash, ishlarni kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirishga qo‘yiladigan talablar, mehnat migrantlari bilan chet elda ishlash, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta‘minlash, shuningdek, fuqarolarni chet ellarda ish bilan ta‘minlash sohasida raqobat va bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi yagona qonunni ishlab chiqish hamda qabul qilish zarurati paydo bo‘lmoqda. Qonunning qabul qilinishi orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi qonunosti hujjatlari qonun darajasida mustahkamlanadi, shuningdek, xalqaro hujjatlardagi mehnat migrantlarining huquqlariga oid normalar milliy qonunchilikka implementatsiya qilinadi;

- fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi mehnat faoliyatini tashkil etish va chet ellik fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida jalb qilish tartibi yagona qonunda tizimlashtirilgan holda jamlanadi;

- tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab beriladi, shuningdek, ushbu sohada qo‘llanib kelinayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi;

- sohani tartibga solishda ishtirok etadigan davlat hokimiyati va boshqaruvi, mahalliy ijro hokimiyati organlarining vakolatlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki doirasi belgilab beriladi;

- uyushgan holda ishga joylashtiriladigan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish tartibi tizimlashtiriladi.

Amaldagi qonunchilikda “labor-migration” axborot tizimini yuritish, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini monitoring qilish tartibini belgilab beruvchi normalar tarqoq holda bo‘lib, ularni yagona tizimga keltirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-642-сон Қонуни // <http://lex.uz/docs/5055690>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Хорижда вақтинча меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ва уларнинг оила аъзоларини қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-149-сон қарори // <http://lex.uz/docs/5893253>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 15 сентябрдаги “Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4829-сон қарори // <http://lex.uz/docs/4997972#4998226>
4. Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви / Монография. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2016. – Б. 62.
5. Қодирова З.А. Глобаллашув шароитида халқаро меҳнат бозоридаги жараёнларнинг тартибга солиниши // Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. – №4, 2015. – Б. 52-61.
6. Migration for Employment Convention (Revised), 1949 (N 97). Принята на 32-й сессии МКТ 01.07.1949 г., вступила в силу 22.01.1952. www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-ed_norm/normes/documents/normativeinstrument/wcms_c097_ru.htm
7. Қодирова З.А. Ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатларда меҳнат миграциясининг халқаро миқёсда тартибга солиниши // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар – № 3, 2015 й. – Б. 1-9.
8. Гребенюк А.А. Теоретические подходы к изучению международной трудовой миграции // Миграция и социально-экономическое развитие. 2016. Том 1. № 1. – С. 17-38. – DOI: 10.18334/migration.1.1.38078